

ZAMONAVIY SHAROITDA YOSHLAR MA'NAVIY HAYOTIGA SALBIY TA'SIR ETADIGAN G'OYAVIY TAHDIDLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11353599>

Xojimetov Sadulla Jumanazarovich

A.Qodiriy nomidagi JDPU ijtioiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (*Ma'naviyat*

asoslari) yo'nalishi 2-kurs magistranti

xojimetovsadulla6@gmail.com

Annotations

Ushbu maqolada globallashayotgan dunyoda ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlarini transformasiyalashuvi jamiyat hayotida yangi taraqqiyot g'oyalari va yangi tahdidlarni kirib kelishi muammolari ko'rib chiqilgan. Yoshlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy yangilanishining muhim sub'ektlaridan bo'lib, jamiyatda sodir bo'layotgan murakkab jarayonlarga o'z ta'sirlarini o'tkazishda va taraqqiyotni harakatga keltirishda muhim rol o'ynaydi. Jamiyatimizdagi yoshlarning ma'naviy-axloqiy hayotiga salbiy ta'sir etuvchi "ommaviy madaniyat" ning noan'anaviy shakllari starizm, Kitch, vandalizm, feminizasiya, maskulinizasiya tushunchalari tahlil etilgan. Bozor iqtisodiyotiga asosan jamiyatda milliy qadriyatlarning transformasiyalashuvi "Ommaviy madaniyat ga qarshi soglom bag'rikenglik munosabatini shakllantirishni taqozo etishi ta'kidlangan. Shuningdek, yoshlarimiz manaviyatini yuksaltirish, odobi, muloqot va kiyinish madaniyatida me'yorni saqlay bilish ko'nikmasini hosil qilish uchun milliylik bilan zamonaviylik uyg'unligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb muammosi ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar

axborot xavfsizligi; globallashuv; axborotlashtirish.

Barcha tarixiy davrlarda ham yoshlar tarbiyasi, ularning dunyoqarashi va o'zligini anglash masalasi mamlakat sosial taraqqiyoti, mustaqilligi, kelajagini kafolatlovchi muhim omil sanalgan. Abdulla Avloniyning jamiyat fozillashuvidan roli bo'lgan tarbiya haqidagi qarashlarida, "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir" [1, 5.10] degan shiori bugungi kunning obektiv tushunchasiga aylanishi, tarbiyaning jamiyatda ahamiyatini dolzarblashtirmoqda. Davlat siyosatiga aylanayotgan yoshlar tarbiyasi bugungi kunda mamlakat taqdirini va kelajagini belgilovchi omil bo'lib qolmoqda. Globallashayotgan dunyoda ularning ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlarining transformasiyalashuvi jamiyat hayotida yangi tushunchani, ya'ni o'zgalashuvni [2] olib kirmoqda. O'zgalashuv (o'zb. o'zga) begonalik, tanimaslik, bilmaslik,

tushunmaslik ma'nosida ifodalanadi. Insonning ijtimoiy - iqtisodiy hayotini qulaylashtirishga intilish natijasida o'z atrofidagi qadrli bo'lgan narsa-buyum, jarayon, kimsalarga munosabatini ma'naviy qiymati o'zgalashuvini sodir bo'lishidir. Shu o'rinda yoshlar tarbiyasi, ayniqsa, bugungi davrda, integrasiyalashuv jarayoni hayotimizning barcha sohalarini qamrab olayotgani muhim ahamiyat kasb etadi.

Insoniyat taraqqiyotining rivojlanish bosqichida azaldan ma'naviyat sohasi dolzarb masala sifatida alohida e'tibor qaratib kelingan. Shu o'rinda, ma'anaviyat insonni o'zligini anglatuvchi betakror mo'jizaviy kuch - qudratga egadir. Ma'naviyat shunday qudratli kuchdirki, u har qanday xalq va millatni buyuk va ulug'or maqsadlar sari birlashtirishga da'vat etadi.

Jahon geosiyosiy maydonidagi o'zgarishlar, globallashuv jarayonlarining quchayishi hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi keskin burilishlar yasamoqda. Dunyoning turli mintaqa va davlatlarida sodir bo'layotgan ayanchli voqealar tahlili ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, internet tizimi, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko'p hollarda ayrim buzg'unchi kuchlar qo'lida turli soxta, zararli g'oya va mafkuralarni targ'ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganligini ko'rsatayotir. Ayniqsa, bu borada yoshlar ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida fikr yuritganda yoshlar o'rtasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning emirilishi, zo'ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, mas'uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayolik kabi illatlarni ildiz otayotganligi tashvishlidir. Bu esa, o'z navbatida, odamzotning o'z tarixiy, diniy, milliy-ma'naviy ildizlaridan uzilib qolishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur holat, jahondagi ko'plab davlatlarda umumi tendensiyaga aylanib bormoqda. Ma'naviyat va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omili hisoblanadi. Shu bois, inson ma'naviy olami, xalqimiz madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish o'z navbatida jahon ilm-fani yutuqlari va umumbashariy taraqqiyotiga zamin yaratgan.

Bugun dunyo miqyosida tobora shiddat bilan kechayotgan tahlikali jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ma'naviy-ma'rifiy sohalarga ham jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Mana shunday murakkab bir sharoitda tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo'lib kolmoqda.

Strategik jamiyat taraqqiyotida yosh avlodning tarbiyasi saviyasining o'rnini nechog'lik muhimligi har qanday davrda ham o'zining ma'lum darajada isbotini ko'rsatgan. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev millatning yoshlarida mustaqil fikrlashga e'tibor qaratib, yuksak intellektual va

ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun..."davlatimiz bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etishini ta'kidlagan [3,6.146].

Ko'pmillatli fuqarolik jamiyatni rivojida aholining milliy hamjihatligi va birligi uchun har tomonlama barkamol avlod tarbiyasi davlat siyosati darajasida amalga oshirilmoqda. Masalaning muhimligi mamlakat aholisining salmog'ida yoshlarning ulushini ortib borishi ham umuminsoniy va milliy qadriyatlar tamoyillarida yoshlarda faol fuqarolik pozisiyasini shakllantirishni dolzarb muammoga aylantirmoqda. Shu ma'noda yurtimiz ozodligi va obodligi uchun Yurtboshimizning olg'a surayotgan tashabbuslari ta'lim va tarbiya uyg'unligida milliy harakatlar strategiyasining [4] mazmun - mohiyatini yanada boyitadi. Tashabbuslar asosida yoshlarni ilmiy intellektual, ma'naviy Stuk komillik goyasi millat taqdirini belgilovchi omil sifatida boy milliy madaniyatimiz, buyuk allomalardan qolgan ilmiy merosni munosib merosxo'ri bo'lishni nazarda tutadi. Darhaqiqat, yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi millatning jahon maydonida obro'-e'tiborini namoyish etishi bilan milliy xususiyat va fazilatlarni namoyon etadi. Yoshlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy yangilanishining muhim sub'ektlaridan bo'lib, jamiyatda sodir bo'layotgan murakkab jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazishda va taraqqiyotni harakatga keltirishda muhim rol o'ynaydi. Mustaqillik tufayli jamiyatimizda, ayniqsa, uning madaniy-manaviy, ma'rifiy sohalarida sodir bo'layotgan sifat o'zgarishlari yoshlar ongi, dunyoqarashiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday ekan, mamlakat taraqqiyotida o'sib kelayotgan yosh avlodning ijtimoiy-ma'naviy va axloqiy tarbiyasi o'ta muhim o'rinnegallaydi. Yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirish, odobi, muloqot va kiyinish madaniyatida me'yorni saqlay bilish ko'nikmasini hosil qilish uchun milliylik bilan zamonaviylik uyg'unligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb muammoqidir.

Globallashuv sharoitida axborotlashtirish jarayoni va uning aholi, ayniqsa uning yosh qismi dunyoqarashiga ta'siri bilan bog'liq muammolar ko'plab olimlar, faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, o'qituvchilar va boshqa sohalarning tadqiqotchilari, shuningdek, ko'plab olimlar tomonidan o'rganilmoqda. bu yo'nalishda tadqiqot olib borayotgan xorijiy va o'zbekistonlik tadqiqotchilar

Ma'lumki, bugungi kunda butun dunyoda global axborot jamiyatini shakllantirish jarayoni davom etmoqda va bu jarayonda tobora ko'proq davlatlar ishtiroy etmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga tayanib, yuksak darajada axborot tizimlarini rivojlantirmoqda va aholining ilmiy va intellektual salohiyati yuqori, rivojlangan

davlatlar qatoriga kirish maqsadlarini amalga oshirmoqda. Aholining onglilik darajasini oshirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish yoshlardan chuqur bilim va yangi qobiliyat, keng dunyoqarash va o'zgarishlarga moslashishni kafolatlaydigan, jamiyatda munosib o'rinn egallash imkonini beradigan o'ziga xos tafakkurga ega bo'lishni talab etadi.

Bir qator mamlakatlarda axborotlashtirish jarayonlarining jadallahishi insonning, ayniqsa, yoshlarning katta hajmdagi axborotni olish, qayta ishslash, o'zlashtirish va undan foydalanish vositalari va usullaridan samarali foydalanishga to'liq tayyor emasligidan dalolat beradi. Hujumchilar yoshlarning internetga qiziqishini bilgan holda bundan katta mahorat bilan foydalanadilar.

Bugungi kunda dunyoning ayrim qudratli davlatlari o'z milliy manfaatlarini ro'yobga chiqarish yo'lida globallashuv jarayonlarida hukmronlik qilishga urinmoqda. Bu borada talaba-yoshlar o'rtasida axborot iste'moli madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2019-yil 19-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida yoshlarga e'tiborni kuchaytirish: ularni madaniyat, san'at, sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish ko'nikmalarini joriy etish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. , va o'qishni targ'ib qilish. O'zbekiston rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha beshta muhim tashabbusni ilgari surdi:

- yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishini oshirish, iste'dodlarini rivojlantirish;
- sport sohasida yoshlarning jismoniy rivojlanishi, qobiliyatlarini namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish;
- yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish;
- ayollar bandligi muammosi.

Bugungi kunda O'zbekistondagi 800 dan ortiq madaniyat uylari, 312 musiqa va san'at mакtabalarida 130 ming o'g'il-qiz tahsil olmoqda, ularning aksariyati o'quv qurollari, notalar bilan ta'minlangan, biroq musiqa asboblari, mebel va jihozlar bilan ta'minlash hali ham yetarli emas. O'zbekiston aholisining qariyb 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar tashkil etadi. Ularning bilim olishi, kasb-hunar egallashi uchun barcha sharoit yaratilgan.

Bugungi globallashuv davrida "ommaviy madaniyat" ni yangi mafkuraviy xavflari sifatida starizm, Kitch, vandalizm, feminizasiya, maskulinizasiya yoshlar hayotida tabiiy jarayoniga aylanib, mintaqqa yoshlarining ahloqida oila va nikoh munosabatlariga ijtimoiy kayfiyat va mo'ljallarini o'zgartirishi bilan jiddiy tahdid tugdirmoqda. Bu muammo "feminizasiya va muskulinizasiya" kabi atamalarda o'rtacha jinsga tomon deviantlikka etaklash g'oyasidir. G'arbcha feminizm ayol huquqlarini himoya qilish, uni jamiyatda erkaklar bilan teng qilish shiori ostida sharqona mentalitetga zid o'zbek ayolida erkak hissiyotini shakllantirishi bilan ijtimoiy muvozanatni buzishga xizmat qiladi. Ayollarda erkaklarga turmush tarzi, fe'l-atvorga ko'nkish, ayniqsa, erkaklar sportiga jalb etilishi ayol Konstitusiyasiga shikast etkazdi.

Feminizasiya (lot, *femina* ayol) erkaklardagi ayol xis-tuygulariga xos bo'lgan ikkinchi darajali xis-tuyg'u xususiyatlarning shakllanishi jarayonidir [6]. O'tgan davr bo'xronli o'zgarishlari erkaklarning bandligi muammosi, ayollarning savdotijorat gender muammolarini yanada murakkablashtirdi. Jamiyatning barcha bo'g'inlarida erkaklarga nisbatan ayollarning huquqidagi ustuvorlik erkakni, oilada otaning maqomini jiddiy pasaytirib, farzand tarbiyasini jiddiy izdan chiqardi. Keyingi o'n yilliklarda erkak gender qiyofasida nafislik, latiflik, muloyimlik, zaiflashuv kabi fazilatlar erkak axloqi va fe'l-atvorida shakllanishi kuzatildi.

Muskulinizasiya (lot. *masculinus* erkak) ayollarda erkakka xos xis-tuyg'ular shakllanishi, ya'ni ularning axloqida jasoratilik, mustaqillik, o'ziga ishonch, mardlik, sovuqqonlik, lafzlilik, jangarilikni kuchaytirmoqda [7]. Bu hol oilaviy hayotda ayolning jinsiy ustunlik xoxish ehtiyoji tufayli ona gegemonizmi yoki g'ayrijinslikka omil bo'lmoqda. Har qanday jamiyatda ayol va erkakning maqomi va funktsiyasini an'anaviy yo'ldan og'ishi ijtimoiy deviant holatidir. Gender tajribasi 2014 yil Evrovidenie musiqali ko'rik tanlovida bosh sovrinni egalagan avstriyalik Tomas Noyvirt "Konchita Vurst" taxallusida o'zining alter-egosi [8] bilan feminizasiya shoxsupaning eng yuqorisiga ko'tarildi. Alter-Ego (lot. alter ego "boshqa men") insonning yoki xarakterning haqiqiy yoki ixtiro qilingan muqobil shaxsiyati, uning xarakteri va harakatlarida yozuvchining asaridagi lirik qahramon, taxallus, hokim yoki hatto ruhiy kasallik natijasida paydo bo'lgan ko'plab shaxslardan biri bo'lgan tasvir bo'lishi mumkin.

Xulosa o'rnida muallif O'zbekistonda yoshlar ongini har qanday zararli axborot tahdidlaridan himoya qilish bo'yicha o'z tajribasi borligini ta'kidlaydi. Axborot urushi avjida kechayotgan siyosiy jarayonlarning mazmun-mohiyati va asl sababini chuqr anglash, tevarak-atrofda sodir bo'layotgan voqealar haqida ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish, aholiga, birinchi navbatda, yoshlarga har

qanday axborot xurujlari asosi ekanligini tushuntirish. namoyishlar va tartibsizliklar bilan rangli inqiloblar - bularning barchasi axborot tahdidlariga qarshi turishning muhim omiliga aylanadi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining ta'sirining roli va kuchini hisobga olish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Juraev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. - T.: Ma'naviyat, 2008. -B. 397-398.
2. Karimov I.A. Eng asosiy meson - ^ayot hak;schatini ax yuk. - T.: O'zbekiston, 2009. - B. 5-6.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. - B. 46.
4. Rasulov A. Global zharayonlar va ma'naviyat // Journal of Uzbekistan matbuoti. -Toshkent, 2008. - No5-6. - B. 8-9.
5. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish Tug'risida"gi gijonuni. Axborot va axborotlashtirishga oid normativ-hukukiy hujjatlar tuplami. T.: "Adolat", 2008. - 50 b.